



Bayjonov Furqat Baxromovich,
*“Mahalla va oila” ilmiy-tadqiqot instituti
mustaqil tadqiqotchisi*

OILA VA UMUMTA'LIM MAKTABLARIDAGI YUQORI SINIF O'QUVCHILARINING GENDER MADANIYATINI RIVOJLANTIRISH TEXNOLOGIYALARI

Annotatsiya. Ushbu maqolada oila va umumta'lim maktablar hamkorligidagi yuqori sinf o'quvchilarining gender madaniyatini rivojlantirish texnologiyalari ko'rib chiqildi.

Tayanch so'zlar: o'quvchi, gender, ijtimoiy, muammo, gender tenglik, gender tengsizlik, gender yondashuv, oila, maktab, texnologiya.

Аннотация. В данной статье были рассмотрены технологии развития гендерной культуры старшеклассников во взаимодействии с семейной и общеобразовательной школой.

Ключевые слова: ученик, гендер, социальная, проблема, гендерное равенство, гендерное неравенство, гендерный подход, семья, школа, технология.

Annotation. In this article, the technologies for the development of gender culture of high school students in cooperation with family and general education schools were considered.

Keywords: student, gender, social, problem, gender equality, gender inequality, gender approach, family, school, technology.

Kirish. O'zbekistonda So'nggi yillarda amalga oshirilayotgan ijtimoiy-iqtisodiy islohotlar tizimida gender masalalari, xotin-qizlarning ijtimoiy faolligini oshirish, ularning turmush sharoitlarini yaxshilash, qobiliyatlarini erkin amalga oshirishlari uchun qulay shart-sharoitlarni yaratish hamda qo'llab-quvvatlashni amalga oshirish maqsadida normativ-huquqiy bazalar yanada takomilashtirildi. “Xotin-qizlar va erkaklar uchun teng huquq hamda imkoniyatlar kafolatlari to'g'risida”gi hamda “Xotin-qizlarni tazyiq va zo'rvonlikdan himoya qilish to'g'risida”gi

O'zbekiston Respublikasi Qonunlari qabul qilindi.

Shuningdek, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 7-martdagi “Xotin-qizlarning mehnat huquqlari kafolatlarini yanada kuchaytirish va tadbirkorlik faoliyatini qo'llab-quvvatlashga oid chora-tadbirlar to'g'risida”gi PQ-4235-son qarori hamda O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2020-yil 30-martdagi “Normativ-huquqiy hujjatlar va ularning loyihalarini gender-huquqiy ekspertizadan o'tkazish tartibi to'g'risidagi nizomni tasdiqlash

haqida”gi 192-sonli, 2020-yil 23-iyundagi “Oliy ta’lim muassasalariga qo’shimcha davlat granti asosidagi qabul ko’rsatkichlari doirasida xotin-qizlarga tanlovda ishtirok etish uchun tavsiyanoma berish va ularni o’qishga qabul qilishni tashkil etish tartibi to’g’risidagi nizomni tasdiqlash haqida”gi 402-sonli, “Xotin-qizlarni tazyiq va zo’ravonlikdan himoya qilish tizimini takomillashtirish chora-tadbirlari to’g’risida”gi 2020-yil 4-yanvardagi 4-sonli, 2019-yil 20-noyabrdagi “Xotin-qizlarni ish bilan ta’minlash, ular o’rtasida tadbirkorlikni rivojlantirish tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to’g’risida”gi 919-sonli, 2018-yil 12-apreldagi “Og’ir ijtimoiy vaziyatga tushib qolgan xotin-qizlarga, nogironligi bo’lgan, kam ta’minlangan, farzandlarini to’liqsiz oilada tarbiyalayotgan va uy-joy sharoitini yaxshilashga muhtoj onalarga arzon uy-joylar berish tartibi to’g’risidagi nizomni tasdiqlash haqida”gi 285-son qarorlari gender tenglikni ta’minlash va ayollarning ijtimoiy turmush sharoitlarini yaxshilashga qaratilganligi bilan ahamiyatlidir.

Mamlakatda gender tenglikni ta’minlashning tashkiliy-huquqiy mexanizmi sifatida O’zbekiston Respublikasida Gender tenglikni ta’minlash masalalari bo’yicha komissiya faoliyat boshladi. Shuningdek, Oliy Majlis Senatining Xotin-qizlar va gender tenglik masalalari va Qonunchilik palatasida Oila va ayollar masalalari bo’yicha komissiyaning tashkil etilishi mazkur sohaning huquqiy asoslarini mustahkamlash, qabul qilingan normativ-huquqiy hujjatlar ijrosining ta’minlanishi ustidan parlament nazoratini olib borish imkonini yaratdi.

Respublika Xotin-qizlar jamoatchilik kengashi va uning hududiy jamoatchilik kengashlari jamiyat hayotida xotin-qizlarning faol ishtirok etishini qo’llab-quvvatlashga qaratilgan bo’lib, barcha sohada xotin-qizlarning teng huquq va imkoniyatlarini kafolatlaydi.

O’zbekiston Respublikasining “Xotin-qizlar va erkaklar uchun teng huquq hamda imkoniyatlar kafolatlari to’g’risida”gi Qonunida xotin-qizlar va erkaklar uchun teng huquq hamda imkoniyatlar kafolatlarini ta’minlashning asosiy prinsiplari asosida davlat tomonidan xotin-qizlar va erkaklarga jamiyat hamda davlat ishlarini boshqarishda, saylov jarayonida teng ishtirok etish, sog’liqni saqlash, ta’lim, fan, madaniyat, mehnat va ijtimoiy himoya

sohalarda, shuningdek, davlat va jamiyat hayotining boshqa sohalarida teng huquq hamda imkoniyatlar ta’minlanishiga erishish mamlakatimizda gender strategiyasini amalga oshirishning ustuvor yo’nalishi etib belgilandi¹.

Ta’kidlanganidek, bugungi kunda gender tenglikka erishish nafaqat demokratik qadriyatlardan biri, balki ijtimoiy-iqtisodiy va ma’naviy taraqqiyotning muhim omili hisoblanadi. Jahon miqyosida orttirilgan tajriba shundan dalolat beradiki, aynan erkaklar va ayollar uchun teng imkoniyatlar mavjud davlatlarda aholi turmush farovonligi va ijtimoiy-siyosiy faolligi yuqori darajada bo’lib, islohotlar muvaffaqiyati ta’minlanadi.

Asosiy qism. “Gender” – xotin-qizlar va erkaklar o’rtasidagi munosabatlarning jamiyat hayoti va faoliyatining barcha sohalarida, shu jumladan siyosat, iqtisodiyot, huquq, mafkura va madaniyat, ta’lim hamda ilm-fan sohalarida namoyon bo’ladigan ijtimoiy jihati.

Xorijiy va MDH mamlakatlari olimlari E.Mayer, K.Xiggins, I.Kon, A.Mudrik, L.Popova, I.I.Yukina, Yu.S.Tukacheva, L.I.Stolyarchuk va boshqalarning tadqiqotlarida gender va ta’limda gender yondashuv masalalari o’g’il va qiz bolalarga ta’limda bir xil imkoniyatlar berish hamda tenglikni ta’minlash; o’quv jarayonida o’g’il va qiz bolalarning psixofiziologik xususiyatlaridan kelib chiqqan holda, ularning o’z imkoniyatlarini to’laqonli ro’yobga chiqarishi uchun xizmat qiladigan o’qitishning shakl va metodlari, vositalarini tanlash; ta’lim muassasasida gender bag’rikenglikni, gender tenghuquqlilikni ta’minlash, shuningdek, ta’lim mazmunining gender tahlilini amalga oshirish, o’qituvchilarning gender savodxonligini oshirish kabi yo’nalishlar keng o’rganilgan².

¹ Ўзбекистон Республикасининг “Хотин-қизлар ва эркеклар учун тенг ҳуқуқ ҳамда имкониятлар кафолатлари тўғрисида”ги Қонуни, 2019 йил 2 сентябрь. Ўзбекистон Республикасининг “Хотин-қизларни тазйик ва зўравонликдан ҳимоя қилиш тўғрисида”ги Қонуни, 2019 йил 2 сентябрь.

² Жамолдинова О., Мирсолиева М., Рискулова К. Педагогик таълимда гендер ёндашуви масалалари// Мактабгача таълимда давлат ва нодавлат секторни ривожлантириш: янги шакллари ва таълим мазмуни мавзусидаги халқаро илмий-амалий анжуман материаллари тўплами. – Тошкент, 2020. – Б. 99-101.

O'zbekiston Respublikasida gender yondashuv asosida uzluksiz ta'lim muassasalarida o'qitish sifatini oshirish, xotin-qizlarning ijtimoiy faolligini rivojlantirish, kasbiy ta'limda gender masalalari kabi yo'nalishlarda tadqiqotlar olib borilgan. Pedagog olimlar O.Musurmonova, T.Egamberdiyeva, N.Egamberdiyeva, R.Samarov, U.Temirovalar tomonidan xotin-qizlarning ijtimoiy faolligini oshirish masalalari gender yondashuv orqali tahlil etilgan, pedagogik ta'limda gender yondashuv masalalari o'rganilgan. Olimlarning fikricha, o'qituvchilarni tayyorlashda gender jihatlarni ishlab chiqish jarayoni va amalga oshirish tamoyillari ularni pirovard natijaga olib keluvchi asosiy bosqich hisoblanadi. Gender jihatlarni tushungan o'qituvchi gender muammolaridan xabardorligi va his qila olishi asnosida yosh avlodni ongli fikrlash va harakat qilishiga imkon yarata oladi. Shunday ekan, ta'limda gender tenglikni amalga oshirish harakati o'qituvchidan boshlanib, uning kasbga tayyorlash bosqichidan to uzluksiz malaka oshirish bosqichigacha bo'lgan butun faoliyatini qamrab olishi kerak. Shu bois oliy ta'lim muassasalarida talabalarning kasbiy bilim va ko'nikmalardan tashqari, ularga muhim hayotiy ko'nikmalarni, shu jumladan, tahliliy va tanqidiy fikrlash qobiliyatlarini, muammolarni hal qilish, moslashuvchanlik, shaxslararo muloqot ko'nikmalarini rivojlantirish, shuningdek, mustaqil va hamkorlikda ishlashga o'rgatish gender kompetentlikni shakllantirish juda muhim hisoblanadi. Buning uchun oliy ta'lim tizimiga gender yondashuvni tatbiq etish va uni boshqarishning samarali mexanizmlarini ishlab chiqish talab etiladi.

Gender yondashuv – gender tengsizligining mavjudligini va ularning sabablari, oqibatlarini tushunish hamda ularning yechimini ta'minlash to'g'risidagi yondashuv. Gender yondashuv erkak va ayollar o'rtasidagi gender munosabatlardagi o'zgarish bo'lib, erkaklar va ayollar uchun foydali ta'sir ko'rsatadigan vakolatlar va majburiyatlarni yanada teng taqsimlashga yordam beradi. Bo'lajak o'qituvchilarni tayyorlashda gender yondashuv esa ta'lim strategiyasini ishlab chiqishda, kasbiy tayyorgarlik mazmuni va texnologiyalarini belgilashda, o'qituvchilarning

kasbiy kompetensiyalarini rivojlantirishda, ilmiy-tadqiqotlarni amalga oshirishda gender masalalarini bevosita jalb qilishni o'z ichiga oladi. Fikrimizcha, oliy ta'lim tizimiga gender yondashuvni tatbiq etish ta'lim jarayonining barcha tarkibiy qismlari, ya'ni tarbiyaviy, ta'limiy (ta'lim mazmuni) va metodik (o'qitish metodlari, o'quv jarayonini tashkil etish, pedagogik hamkorlik) jihatlarini, shuningdek, tashkiliy-pedagogik shart-sharoitlarini, ta'lim tizimini boshqarishni gender masalalariga ta'sirchanligini oshirishni ko'zda tutadi.

Ta'lim ijtimoiy munosabatlarning muhim omili hisoblanadi. Ta'lim o'g'il va qizlarning qobiliyatlarini rivojlantirish, ayol va erkaklarga davlatning ijtimoiy, iqtisodiy va siyosiy hayotida ishtirok etishlari uchun imkoniyat yaratadi hamda demokratik davlatning rivojlanishi uchun poydevor bo'ladi.

Ta'lim olish orqali jamiyatda madaniy, siyosiy, etnik, diniy va gender xilma-xilliklarga nisbatan bag'rikenglik g'oyalari shakllanadi. Ko'pincha ta'limdagi gender tengligi to'g'risidagi bahslar gender paritetini muhokama qilish bilan cheklanib qolinadi. Masalan, agar yigit va qizlarga oliy ma'lumot olish uchun o'qishga kirish imkoni berilgan bo'lsa, demak ta'limdagi gender tenglik ta'minlandi deb hisoblanadi. Biroq ta'limda gender tengligini ta'minlash – bu gender prioritetni ta'minlashdan ham kengroq bo'lgan konsepsiyadir.

Ta'limdagi gender tengligini tahlil qilishda turli xil o'lchovlarni ajratib olish mumkin. UNESCO gender tengligiga erishish bo'yicha quyidagi Doiraviy dasturni qo'llashni tavsiya qiladi (Gender Equality Framework):

– **ta'lim olishda tenglik** deganda, yigit va qizlarga rasmiy va norasmiy ta'limga kirish uchun teng imkoniyatlar yaratish tushuniladi;

– **o'quv jarayonidagi tenglik** – yigit va qizlar o'quv jarayonida adolatli baho va e'tibor olishi, ya'ni ular o'g'il va qiz bolalarni o'qitishning turli xil usullari bilan bog'liq bo'lgan maqbul kelishmovchiliklarni inobatga olib, tuzilgan bir xil o'quv dasturlari orqali shug'ullanishini nazarda tutadi;

– **ta'lim natijalaridagi tenglik** – yigit va qizlarning ta'lim natijalaridagi baholari ularning

individual iste'dodi va sa'y-harakatlariga asoslanadi deganidir. Muvaffaqiyatga erishishning adolatli imkoniyatlarini ta'minlash uchun ta'lim muddati, akademik malaka va diplomlari jinsiy mansublikka qarab farqlanishi mumkin emas;

– **tashqi natijalardagi tenglik** – ayol va erkakning maqomi ularning tovar va resurslarni qo'lga kiritishda, iqtisodiy, ijtimoiy, madaniy va siyosiy faoliyatda ishtirok etish va foyda olishda o'z hissasini qo'shishdagi qobiliyati tengligidir. Misol uchun bu teng malaka va tajribaga ega bo'lgan ayol va erkaklarning martaba o'sishi, mehnatga bir xil haq to'lanishi tushuniladi.

Gender tengsizligining namoyon bo'lishini ta'lim tizimi boshqaruvi va tuzilishini tahlil qilish, o'qituvchilarning munosabati va amaliyoti, o'quv materiallari va o'quv dasturlarining tarkibi orqali ham aniqlash mumkin.

Gender tengligini o'rganish nima uchun kerak?

Bugungi kunda ta'lim sifatini ko'rsatkichi sifatida ta'limda gender yondashuvi elementlarini joriy etish tobora ommaviylashmoqda. **Ta'limda gender tengligi** ijtimoiylashuv jarayonini ta'minlash hamda me'yor va tushunchalarni yetkazishda, shu jumladan, gender tengligi to'g'risidagi sifatli bilim olishdan teng foydalanishni anglatadi.

Jamiyatda gender tengligini ta'minlashga qaratilgan sifatli ta'lim bo'lajak o'qituvchilarni tayyorlashda, o'quv dasturlarida, o'quv adabiyotida, ta'lim jarayonida, talaba va o'qituvchilar o'rtasidagi munosabatlarda gender tengsizlik masalalariga ta'sir qilish va hal qilishga qaratilgan.

Genderga ta'sirchan amaliyotlarni kamsitmaslik tamoyillarini qo'llashni ta'minlovchi malakali kadrlarni tayyorlash ta'lim tizimiga genderga oid bilimlarni kiritish orqali amalga oshiriladi.

O'zbek xonadoni va balog'at yoshidagi o'smirlarda gender madaniyatni shakllantirish borasidagi ishlarni olib borish jarayonida yuqori sinf o'quvchilarini gender madaniyati bo'yicha o'qitishning samarali ta'sir kuchlari o'rganib chiqildi. Bu borada o'quvchilarning gender madaniyatini hosil qilish yuzasidan o'qitish mashg'ulotlarini o'tkazishda pedagog mutaxassislarni tayyorlash va qayta tayyorlash unchalik hal qiluvchi rol o'ynamaydi. O'qituvchining dunyoqarashi,

maktabdagi qiz va o'g'il bolalarni shaxs sifatida kamolga yetkazishda uning inson sifatida shaxsiy o'rnagi, ustozning hayotda egallagan o'rni, gender roliga xos stereotipi va gender notengligini oydinlashtirish va tasdiqlash istagi hal qiluvchi vazifani bajaradi. Chunki o'qituvchi bolaga bilim berish bilan birgalikda shaxsiy ta'sir ham o'tkazib boradi, dunyoni endi anglay boshlayotgan bola uchun o'qituvchidagi xislatlar, ongi va dunyoqarashi ayrim holatda mutlaq haqiqat bo'lib tuyuladi. Tabiiyki, bola o'zi ideal deb bilgan odamga ergasha boshlaydi. O'qituvchi shuning uchun shaxs sifatida ta'sir ko'rsatuvchi ham hisoblanadi.

Tadqiqotni olib borish davomida biz o'qitish jarayonidagi gender yondashuvni yuzaga chiqarish maqsadida pedagogning ilmiy, uslubiy va nazariy jihatdan tayyorgarligini hamda bu jarayonni amalga oshirishda bir qancha talablarga amal etishini maqsadga muvofiq deb hisobladik. Zotan, pedagogning eng birinchi vazifasi bu bolada munosabatlarni to'g'ri shakllantirishdir. Zero, bu davrda o'smir yoshdagi qizlarda yetakchi axloqiy qadriyatlar, odob, hayotga munosabat, tushunchalar, dunyoqarash, shartli odatga aylanuvchi qoidalar shakllanadi.

Maktabning yuqori sinf bosqichlarida ta'lim oluvchilarning gender dunyoqarashini o'stirishda o'quv va tevarakdagi jonli-jonsiz narsalar ham ta'sirchan kuchga ega. O'quv xonalari, kutubxonalarida gender tuzilmalari, xilma-xil millatlar kesimidagi genderlik xususiyatlari, jamiyat taraqqiyotida xotin-qizlar va erkaklarning teng ulushi haqida keng ma'lumot ulashadigan manbalar, rasmlar, xaritalar va boshqa shu kabi qo'llanmalarga ehtiyoj seziladi.

Umumiy o'qitishning barcha manzillaridagi mas'ullar bilim oluvchilarining gender dunyoqarashini paydo qilishda bir qancha odob me'yorlari va ruhiy-estetik tomonlarini ham yodda tutishlari lozim. Geteroseksual mavzular, ya'ni qarama-qarshi jins vakiliga munosabat qilish bo'yicha tushunchalar berish bilan kim shug'ullanadi? Ushbu ishga qaysi shaxslarning ma'naviy va kasbiy huquqi bor? Mazkur muammolar o'spirin yoshida katta ahamiyatga ega va kechiktirib bo'lmas masala sanalib, maktab o'quvchilarining gender dunyoqarashiga uyg'un

tushuvchi shu malakaga ega pedagoglarni ta'lim tizimiga olib kirish darajasi haqida so'z yuritishga zarurat tug'diradi. Bu borada ustoz, ilk navbatda, ruhan va ma'nau sog'lom bo'lishi, ushbu holatni tushuntirishda obyektiv yondashishi kerak. Zero, ustoz o'quvchilarni gender tarbiyaga nisbatan rag'bat uyg'ota olishi uchun uning o'zi ustozlik vazifasining eng oliy nuqtasida bo'lmog'i lozim. Demak, mazkur malakaga ega pedagog jamiki yaxshi natijalarga olib boradigan, ayol va erkakka xos xislatlarni muvofiqlashtirgan tarzda gender bag'rikenglik hamda odamiylikka ega bo'lishi kerak.

Ayni vaqtda umumiy ta'lim dargohlarida o'quvchilarning gender dunyoqarashini shakllantirish maqsadida pedagogning nafaqat bilim, ko'nikma va malakalar o'zlashtirgani, balki uning uzoq tarixga ega o'qitish texnikasini bilishi, tahlil etish hamda qayta ishlash asosida tajriba hosil qilishi kerak.

Pedagogning zukkoligini ko'rsatadigan omil shuki, u yolg'iz ta'lim berish paytidagina emas, balki o'quv jarayonidan xoli qolganda ham bolalarni gender tushunchalarni shakllantirishda interaktiv ko'rinishlarni ham tashkil qila biladi. Tadqiqotimizning oldiga qo'ygan maqsad va vazifalariga ko'ra, o'zimiz belgilab olgan xaritada boy mahalliy hamda o'zga millatlarning pedagogik tajribalaridan foydalanib, ruhshunoslikka bog'liq holda milliy va madaniy o'ziga xosliklarni, urf-odat, milliy dunyoqarash, gender afzalliklarini e'tiborda tutib, 8 soatlik "Oilaviy hayot madaniyati" nomli dastur ishlab chiqdik. Bu dasturni, asosan, o'quvchilarning bo'sh paytidan mazmunli foydalanish va ularning gender madaniyatini rivojlantirish maqsadida tayyorladik. Dastur pedagogga gender madaniyatni hayotga tatbiq qilishga ko'maklashish uchun tayyorlangan bo'lib, uning vazifasi gender notenglikning eng mayda ko'rinishlariga diqqat qilish, balog'at yoshidagi o'quvchilar ichida yigit va qizlar o'zaro mentalitetimizga mos munosabatga erishgan yutuqlari, to'plagan tajriba va kuzatuvlaridan samarali foydalanish, shuningdek, o'quvchilarni gender qadriyatlarini muhokama etish jarayoniga tortishdir.

Yuqori sinf o'quvchilariga genderning mohiyati, ichki va tashqi ta'sirlari, milliy belgilari borasida bilim berish va gender madaniyatni o'stirish yuzasidan qo'limizdagi maxsus kursning ta'lim rejasiga kiritilgani O'zbekiston Respublikasida gender tengligini qo'lga kiritish va yoshlar orasida gender muhitni ijobiylashtirish yo'llaridan biridir.

Pedagoglarimiz orasida yoxud ta'lim tizimi vakillari ichida olib borilgan so'rovnoma so'rovlari natijasida ma'lum bo'ldiki, gender masalasi pedagoglar uchun yangi va mavhum mavzudur. Tadqiqot ishlari jarayonida umumta'lim dargohlarida o'qituvchilarning 68% i "gender" atamasi bilan ilk marotaba tanishayotgani ayon bo'ldi. Yana bundan tashqari, o'qituvchilar ham odatda gender qoliplarga bilib-bilmay bo'ysunadilar.

"Oila psixologiyasi" fanidan dars beradigan pedagoglar (ko'pincha, gumanitar, ya'ni tarix, ona tili va adabiyot, ma'naviyat asoslari, psixolog fani ustozlari) bilan o'tkazilgan suhbatlar vaqtida bir qancha o'qituvchilar o'z fanlari va gender o'qitish orasidagi aloqadorlikni ochiq-oydin anglab yetmasliklari ma'lum bo'ldi.

Bugungi davr maktabi gender bilan belgilanadigan o'ziga xos ijtimoiy funksiyalarni yetarli darajada tushungan holda kelgusida ayol va erkaklar shaxsiyatini barkamollashtirishga ulush qo'shadimi yoki yo'q singari so'rovga qoniqarli javob berish qiyin.

O'g'il va qiz bolalar tarbiyasida tabaqalashtirilgan yondashuvni joriy qilishga doir ishlarda ancha chigalliklar, qiyinchiliklarni boshdan o'tkazayotgani pedagoglar o'rtasida olib borilgan so'rovnoma ma'lumotlarini tahlil qilishda ochiq-oydin ayon bo'ldi. Ular o'quvchilarning gender o'ziga xoslik, ularning gender tengligi borasidagi kerakli bilimlarni o'zlashtirish darajasini deyarli ko'zda tutmaydilar.

O'qituvchi tomonidan gender tengsizlikni bartaraf qilinishining eng samarali mexanizmlaridan bu – o'quvchilarning gender faoliyati vaqtida faol qatnashishi, erkak va xotin-qizlar orasidagi o'rtoqlikning namunali isboti va boshqa xilma-xil vaziyatlarida qatnashishidir.

Ko'rib chiqilgan masalani tahlil qilish bizda yana bir bor shunga ishonch paydo qildiki, bu yerda maktab bolalariga gender tarbiyani tashkil etishning

samarador uslubiy tamoyillari ancha muvafaqqiyatli o‘rin tutadi, bu ularning gender imkoniyatini, o‘z-o‘zini tushunib yetish fonida gender potensialini aniqlashga ko‘maklashadi.

Xulosa. Ta’kidlash kerakki, gender o‘qitish muayyan uslubiy yo‘riq bo‘lib, hududning ta’lim muassasalari sharoitida ta’lim va tarbiya qatnashchilarining gender ijtimoiylashuvi bilan bog‘liq holatni, turli jinsdagi o‘quvchilarning manfaatli sherikligi va o‘zaro ta’sirini yaxshi tomonga o‘zgartirish maqsad qilingan.

Shunday qilib, demokratik davlat va fuqarolik jamiyatini rivojlantirish ko‘p jihatdan gender tenglikni ta’minlashga bog‘liq.

Zero, bugun bizning jamiyatimiz yangi siyosiy munosabatlar shakllanishi, Uchinchi Renessans jarayonining ilk bosqichida turibdi. Ushbu jarayonda erkaklar va ayollar ijtimoiy-iqtisodiy, siyosiy, ma’naviy va boshqa sohalarida gender tenglikni ta’minlash, ayniqsa, o‘g‘il-qizlarning davlat va jamiyat qurilishidagi ishtirokini takomillashtirish talab etiladi. Tadqiqotlar shundan dalolat beradiki, bu borada yuqori samaradorlikka erishishda quyidagilarga e’tiborni kuchaytirish lozim:

- ta’lim muassasalarida o‘qitiladigan ijtimoiy-gumanitar fanlar mazmuniga ushbu masala bo‘yicha ustuvorlik berish; ta’lim muassasalarida “Gender tenglik strategiyasi” maxsus kurslarini, nazariy-metodik laboratoriyalarini tashkil etish va ular uchun dasturiy mahsulotlarni yaratish maqsadga muvofiqdir;

- **gender tenglikni ta’minlashning ijtimoiy, iqtisodiy, siyosiy, ma’naviy, ruhiy** va boshqa **jihatlar** bo‘yicha ruknli risolalar, esdaliklar, videomateriallar, onlayn dasturlar, ko‘rgazmali targ‘ibot mahsulotlari (plakatlar, bukletlar va b.) va boshqalarni yaratish hamda ularni har bir oilaga va umumiy o‘rta ta’lim muassasasiga kirib borishini ta’minlash mexanizmi yaratilishi zarur;

- mahallalar, oila va ta’lim muassasalarida **“Gender tenglik” markazlari** tashkil etish orqali milliy va xalqaro qonunchilikda gender tenglikning mazmun va mohiyatini ular ongiga singdirish lozim;

- gender muammolariga oid savollar bo‘yicha maslahatlar olish va berish maqsadida **MOOKlar** (Ommaviy ochiq onlayn saytlar)ni yo‘lga qo‘yish, **vebinarlar** (vsebminarlar, vebkonferensiyalar,

vsebdebatlar, veb murojaatlar, metodik veb sahifalar va boshqalar).

Umumiy o‘rta ta’lim muassasalari o‘smir o‘g‘il-qizlarining gender madaniyatini rivojlantirish maqsadida multimedia mahsulotlarini yaratish hamda O‘zbekistonda gender muammolarini o‘rganish, targ‘ib etish, monitoringini yuritish, gender tadqiqotlar elektron platformasini yaratish maqsadga muvofiqdir. Bu jarayonda esa yoshlarni sog‘lom oilaviy hayotga tayyorlash masalalari bo‘yicha, yosh yigit va qizlarning turmush borasida qiziqtirgan savollariga javoblar topishda, oila, ta’lim muassasalari va fuqarolik jamiyati institutlari hamkorligining kengayishida, namunali oilalar, erkaklar va ayollarning hayotiy tajribalaridan xabardor bo‘lishda juda keng auditoriya (turli toifa jinslar, oilalar, turli kasbdagi ota-onalar, qaynona-kelinlar, yigitlar va qizlar, mutaxassislar va boshqalar)ning qamrab olinish imkoniyati vujudga keladi;

- bugungi kunda mamlakatimizda va xalqaro maydonda o‘z salohiyatini namoyon etgan gender muammolari bo‘yicha **fundamental, innovatsion va amaliy tadqiqot** ishlarini amalga oshirgan ilmiy maktablarning yaratilishi, ular tomonidan gender masalalari bo‘yicha dolzarb muammolar yuzasidan **metodik ta’minotni** yaratish, tajriba-sinov natijalari asosida ishlab chiqilgan xulosa va tavsiyalarni oilalar, ta’lim muassasalari, barcha tashkilotlar amaliyotiga tatbiq etish lozim.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YHATI:

1. Ўзбекистон Республикасининг 2019 йил 2 сентябрдаги “Хотин-қизлар ва эркаклар учун тенг ҳуқуқ ҳамда имкониятлар кафолатлари тўғрисида”ги Қонуни. Ўзбекистон Республикасининг 2019 йил 2 сентябрдаги “Хотин-қизларни тазйиқ ва зўравонликдан ҳимоя қилиш тўғрисида”ги Қонуни.
2. Ўзбекистон Республикаси Президенти Ш.Мирзиёевнинг Олий Мажлисга йўллаган Мурожаатномаси // Халқ сўзи, 2021 йил 29 декабрь.
3. Жамолдинова О., Мирсолиева М., Рискулова К. Педагогик таълимда гендер ёндашуви масалалари // Мактабгача таълимда давлат ва нодавлат секторни ривожлантириш: янги шакллари ва таълим мазмуни мавзусидаги халқаро илмий-амалий анжуман маиериаллари тўплами. – Тошкент, 2020. – Б. 99-101.
4. Namazov B., Egamberdiyeva N., Mirsoliyeva M. O'qituvchilarni tayyorlashda gender yondashuv masalalari (Gender mainstreaming in teacher education in Asia-Pacific). O'quv qo'llanma. – Toshkent, 2018.
5. Ўзбекистон қонунчилигида гендер тенглиги ва хотин-қизлар ҳуқуқлари кафолатлари. – Тошкент: “Zamin nashr”, 2020. – 96 б.
6. Ўрозалиева Г.Б. Гендер муносабатларининг аёллар ҳуқуқий маданиятини такомиллаштиришга таъсири. Ижтимоий фан. ном... дисс. автореф. – Тошкент: ЎзМУ, 2006. – 23 б.
7. Bayjonov F.B. Issues of gender equality in Uzbekistan (in adolescents in the family) // Global and regional aspects of sustainable development Copenhagen, Denmark 26-28.02.2021.
8. Bayjonov F.B. Characteristics of the concept of gender culture as a social event // Modern scientific trends and standards Santa Rosa, Argentina 11-12.10.2021.
9. Bayjonov F.B. Gender differences in the contemplation of teenagers // International Scientific Journal Theoretical & Applied Science Year: 2021 Issue: 06 Volume: 98.
10. Bayjonov F.B. Stages of formation of gender culture in youth // European Journal of Research and Reflection in Educational Sciences Vol. 9 No. 4, 2021.